

## ATROF-MUHIT MUHOFAZASIDA CHIQUINDILAR MUAMMOSI

*Fotima Nazarova*

*Navoiy Davlat Pedagogika Instituti talabasi*

*Fotimanazarova1995@gmail.com*

### ABSTRACT

Mazkur maqolada bugungi kunda dolzarb muammoga aylanib ulgurgan, insonlar hayotiga va ularning salomatligiga xavf solayotgan chiqindilar muammosi, uning oldini olish masalalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya,chiqindi,tabiyy resurslar,atrof-muhit,iqlim

### KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillar körsatmoqdaki, söngi yillarda maishiy va sanoat chiqindilari yildan yilga köpayib borayapti. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maishiy chiqindilar hajmining ösishi ekologik barqarorlikka juda katta salbiy ta'sir körsata boshladi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida qattiq maishiy chiqindilar aholi jon boshiga har yili 1 foizga oshmoqda. Hozirgi kunda chiqindilarning 800 dan ortiq turi qayd etilgan bo'lib, ular sonining kelgusida yanada ortishi bashorat qilinmoqda. Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi ob'ektlari chiqindi hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Aytish joizki, atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan uzviy bog'liqdir.<sup>1</sup>

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

2018 yil 20-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi huzuridagi ishchi guruhining «Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan, shu jumladan ichimlik suvidan oqilona foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining matbuot xizmati xabar berdi.

<sup>1</sup> Nature and Global problems.(natureandproblem.blogspot.com)

«Chiqindilar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida hisobga olish va nazorat qilish, chiqindilarni ko'mib tashlash va utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrini yuritish, chiqindilarni transchegaraviy tashish kabi faoliyat turlari hisobiga «chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish» tushunchasi mazmuni kengaymoqda. Shuningdek, sanoat chiqindilarini va maishiy chiqindilarni maxsus texnik moslamalarsiz zararsizlantirish taqiqlanmoqda.<sup>2</sup>

### **MUHOKAMA**

Ko'p asrlar davomida chiqindilarni noto'g'ri boshqarish tabiiy resurslarning o'zgarishiga, tabiatning kutilmagan o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda. Tibbiyot chiqindilari atrof-muhit va uning deyarli barcha elementlari — suv, havo, tuproq, oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishi sababli aholi orasida nafaqat to'g'ridan-to'g'ri, balki, bilvosita infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarning tarqalishi xavfini tug'diradi. Shuning uchun mazkur muammoga jiddiy yondashish taqozo etilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, bu chiqindilarning 80 foizini organik moddalar tashkil qiladi va ularni qayta ishlash natijasida katta miqdordagi energiya va energiya tashuvchilarni ishlab chiqarish mumkin. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi.<sup>3</sup>

Prezident Shavkat Mirziyoyev chiqindilar bilan ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash mavzusi yuzasidan quyidagilarni ta'kidlaydi:

– Yoshligimizdan bilamizki, ota-onalarimiz hovlini, atrofni pok saqlash kerakligini aytardi. Xalqimiz azaldan tuproqni, suvni, tabiatni muqaddas deb bilgan. “Birni kessang, o'nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Daraxt ekkan odamga uning savobi tegib turadi, deyilgan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan.

Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur.

Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish. Bugun ko'chaga yoki istalgan joyga qarang. Hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni ko'rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz? Axir, muqaddas kitoblarimizda ham “Poklik iymondandur” deyilgan.

Nega bu masalada ommaviy axborot vositalari, mahalla faollari bong urmayapti? Qani nuroniylarimiz, jamoatchiligimiz? Albatta, bunday muammolarni faqat

<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2018/09/20/qonun-ozgarish/>

<sup>3</sup> <http://natureandproblems.blogspot.com/2015/06/chiqindilar-muammosi.html?m=1>

ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Mahallada, ko'chalarda chiqindi tashlagan kishini ko'rganda "bu ishingiz noto'g'ri bo'ldi", deydi muhitni shakllantirishimiz, odamlarni bunga o'rgatishimiz kerak. Bu – hammamizning ishimiz va insoniy burchimizdir.<sup>4</sup>

### **XULOSA**

Yuqorida siz bilan insonlar hayotiga xavf solib kelyotgan dolzarb buammoni kòrib chiqdik. Tahlillarga kòra, chiqindilar orqali kelib chiqayotgan muammolar yildan yilda oshib bormoqda. Ko'p asrlar davomida chiqindilarni noto'g'ri boshqarish tabiiy resurslarning o'zgarishiga, tabiatning kutilmagan o'zgarishlariga sabab bo'lmoqda. Xulosa qilib aytganda atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishlarining oldini olish, ozon qatlamining yemirilishi, cho'llanish, atrof-muhitning ifloslanishi kabi global ahamiyatga ega masalalarni hal etish hozirgi kunda insoniyat oldida turgan muammolarimizdan biridir. Unga har birimiz òz e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Ekologik muammolarning oldini olish barchamizning vazifamiz hisoblanadi.

### **REFERENCES:**

1. Nature and Global problems.(natureandproblem.blogspot.com)
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/09/20/qonun-ozgarish/>
3. <http://natureandproblems.blogspot.com/2015/06/chiqindilar-muammosi.html?m=1>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/4955>

---

<sup>4</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/4955>